

SHE'RIY SAN'AT: SO'ZLAR ORQALI HISSIYOTLARNI IFODALASH

*Bozorova Zulkumor Ilxom qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
Imomkulova Gulchehra Norboboyevna,
ilmiy rahbar, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola adabiyotning eng jozibali va murakkab sohasi bo'lgan badiiy san'atlar haqidadir. Shu bilan birga maqolada she'riy san'atlarning, uslubiyati, ularning qo'llanilishi hamda tahlili keltirilgan. G'azallardan namunalar berish orqali badiiy sa'atning adabiyotdagi o'rni beqiyos ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Tashbeh, tashxis, ta'did, talmeh, tanosub, mubolag'a, g'uluv, tablig', irg'oq, mushabbah, mushabbabhihi, vajhi shaboh.

ŞİİR: DUYGULARIN KELİMELERLE İFADESİ

*Bozorova Zulkhumor Ilkhom kızı,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji öğrencisi
Imomkulova Gulchehra Norboboyevna,
bilimsel danışman, Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğretmeni*

Özet. Bu makale edebiyatın en büyüleyici ve karmaşık dalı olan edebi sanatlar hakkındadır. Makale aynı zamanda şiir sanatlarının metodolojisini, uygulanmasını ve analizini sunmaktadır. Gazellerden örnekler verilerek sanat saatinin edebiyattaki rolünün eşsiz olduğu gösterilmektedir.

Anahtar kelimeler. Teşbeh, teşhis, tadid, talmeh, oran, abarti, guluv, tebliğ, irgak, müşebbah, müşebhabhihi, vejhi şabah.

ПОЭЗИЯ: ВЫРАЖЕНИЕ ЧУВСТВ ЧЕРЕЗ СЛОВА

*Бозорова Зулхумор Ильхом кизи,
Студентка Узбекско-Финского педагогического института
Имомкулова Гулчехра Норбобоевна,
научный руководитель, Узбекско-финского педагогического института*

Аннотация. Данная статья посвящена самой увлекательной и сложной отрасли литературы – литературному искусству. В то же время в статье представлена методология поэтического искусства, их применение и анализ. На примерах газелей показано, что роль художественного часа в литературе ни с чем не сравнима.

Ключевые слова. Ташибек, диагноз, тадид, тальме, соотношение, преувеличение, гулув, таблих, иргак, мушибба, мушибхабихи, ваджи шабах.

POETRY: EXPRESSING FEELINGS THROUGH WORDS

*Bozorova Zulkhumor Ilkhom kizi,
Student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute
Imomkulova Gulchehra Norboboevna,
Scientific supervisor, teacher of the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

Annotation. This article is about the most attractive and complex field of literature, the artistic arts. At the same time, the article presents the methodology of poetic arts, their application and analysis. By giving examples from ghazals, it is shown that the role of artistic time in literature is incomparable.

Keywords. *Tashbeh, dias, ta'did, talmeh, tanosub, mubolaga, guluv, tabligh, irgoq, mushabbah, mushabhabhihi, wajhi shabah.*

Uzoq yillik tarixga ega bo'lgan, san'at nomini olgan badiiylik vositalari faqatgina she'r bezagi emas, balki shoir xohish va istagini o'quvchiga yetkazuvchi vosita muallifning rangin tuyg'ular olami haqida tasavvur beruvchi manba yoki shoir ko'nglini kitobxon didi va zavqi bilan bog'lovchi ma'naviy rishta hamdir. Ana shu ma'noda she'riy san'atlar mumtoz adabiyotshunoslikda ilmi bade' unvoni bilan sharaflangan va unga ilmi adab tarkibiga kiruvchi mustaqil ilm turlaridan biri deb qaralgan. Badiiy san'atlar haqidagi dastlabki ilmiy risolalar johiliyya davrida yoki ilk islom xalifalari zamonda shakllanganiga qaramay, bu san'atlar xalq zakovati va badiiy balog'atining belgisi sifatida qadimdan mavjud bo'lgan. Sheriy san'atlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu san'atni ilmi badi deb yuritilganiga guvoh bo'lamic. Imi badi' (ar. badi' - go'zal, chiroqli, ajoyib, nodir, nafis, yangi paydo bo'lgan narsa) - Musulmon Sharq poetikasining tarkibiy qismlaridan biri, nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi sohadir.

Tashbeh adabiyotda keng qo'llaniladigan she'riy san'atlardan biri hisoblanadi. Tahbehda asosan biror narsa, belgi yoki harakat boshqa bir narsaga qiyoslanadi. Bu esa o'sha tushunchani anglash va his qilishni osonlashtiradi. Demak, tashbehni oddiygina qilib o'xshatish desak ham bo'ladi. Tashbehning yuzaga kelishida to'rt unsur ishtirot etishi mumkin.

Masalan: "Yuzing go'zallikda gul kabidir" deyilganda yuz gulga qiyoslaniyabdi.

Mushabbah-o'xshatilgan narsa (yuz)

Mushabbabihi- o'xshayotgan narsa (gul)

Vosita-o'xshashatish vositalari (kabi)

vajhi shaboh-o'xshatish sababi (go'zallikda)

Bundan tashqari quyidagi misralarida ham tashbeh she'riy san'atidan mohirona foydalilanilgan:

Sen gulsen-u, men haqir bulbuldurmen,

Sen shu'lasen, ul shu'laga kuldurmen.

(Z.M.Bobur)

So'z san'atida **-dek, -day, -cha, -simon, -vor, -oso, -vash, -iy, -oyin** kabi qo'shimchalar, **kabi, go'yo, go'yoki, misli, yanglig'**, **xuddi** singari so'zlar o'xshatish vositasini yuzaga chiqaradi. O'xshatish vositasi ishtirot etgan g'azallarda tashbeh yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ba'zan g'azallarda o'xshatish vositasi ham tushib qolib o'xshamish bilan o'xshatilmishgina ishtirot etadi. Masalan, "qoshi hiloldek egik" deyish o'rniga "qoshi hilol" deyilishi, "qomati sarvdek tik" deyish o'rniga esa "sarvqomat" tarzida ishlatilishi bunga misol bo'la oladi.

Ermas alar tufrog'-u, sen nuri pok,

Xilqat alarg'a-yu, sanga-tiyra xok*.*

(Navoiy)

misralarida ham xuddi shu holat kuzatiladi. Asos va vositaning qo'llanilish yoki qo'llanmasligidan qat'i nazar o'xshamish va o'xshatilmish ishtirot etgan o'xshatish mutlaq tashbeh (aniq o'xshatish) deyiladi. Lekin ba'zi o'rirlarda o'xshamish ham tushib qolib, faqat o'xshatilmishgina ishtirot etadi. Bu esa kinoya tashbehni yuzaga chiqaradi. Masalan:

Bo'rini dag'i galadin dur qil,

Suv beribon bog'ni ma'mur qil.

(Navoiy)

Tashxis (arab.-shaxslantirish)-jonlantirish demakdir. Turli narsalar, hayvonlar, qushlar, o'simliklar va boshqalarga insoniy xususiyatlarni ko'chirish san'atidir. Masalan:

Bahor elga aysh-u manga iztirob,

Kulub holima **barq***, yig'lar **sahob***.

(Navoiy)

Ushbu musralarda barq ya'ni chaqmoqning kulishi va bulutning yig'lashi jonlantiriliyabdi.

Jamoling **vasfini*** qildim chamanda,
Qizordi gul uyotdin **anjumanda***.

(Atoyi)

Bunda qorning taglarida qish,
Bahor uchun so‘zlaydi olqish,
(H.Olimjon)

Erta tong shamoli sochlari yoyib,
Yonimdan o‘tganda so‘rab ko‘ramen.
Aytadir:bir ko‘rib, yo‘limdan ozib
Tog‘-u toshlar ichra istab yuramen!
(Cho‘lpon)

*xilqat-tabiat, tashqi ko‘rinish; *tiyra xok-qora tuproq; *barq-chaqmoq; *sahob-bulut;

*vasf-ta’rif; *anjuman-yig‘ilish.

Ta`did-fikriy rivoj, ketma-ketlik, tadrijiylik. U grammatik qurilmalarnining bir xil shaklidan ketma-ket foydalanish orqali ham yuzaga chiqarilishi mumkin.

Dardga to‘lding, g‘amga to‘lding, telba bo‘lding,
Ishq dardini so‘rsang hargiz **darmoni*** yo‘q.

(Ahmad Yassaviy)

Ushbu misralarga e’tibor beradigan bo‘lsak, uning birinchi misrasida birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan tarzidagi sanoq ohangi seziladi. Ayni mana shu holat esa unga alohida ta’sirchanlik baxsh etgan. Ta’did grammatik o‘zaro bog‘lanishlarning bir xil turidan ketma-ket foydalanish orqali ham yuzaga chiqishi mumkin:

Ta’lim gulchehra nargis ko‘zlilar bor,
Shakar dudog‘li, shirin so‘zlilar bor.

(Xorazmiy)

Talmeh (arab.-chaqmoq chaqishi)-ishora qilish, nazar tashlash demakdir. Mumtoz adabiyotda keng qo‘llaniladigan san‘at turlaridan biridir. Bunda shoir mashhur bir qissa, voqe-a-hodisa yoki asarga ishora qilish orqali o‘z fikrini ochib beradi. Shuningdek talmeh she’rda oz so‘z bilan ko‘p ma’noni ifodalash sa’ati ham deyiladi.

Sulaymon* saltanatlik podshosen,
Masih* anfoslik, **Yusufliqosen***.

(Xorazmiy)

Ushbu baytda uchta tarixiy shaxslarning nomlarini keltirish orqali talmeh san‘ati yuzaga chiqarilgan. Bunda Sulaymon-Allohning amri bilan jamiki ins-u jins, hayvonlar va parrandalar olamiga podshohlik qilganligi, Masihning esa jon ato etish xususiyati, Yusufning go‘zalligi madh etilgan.

Shakr erving naboti **Xizrga*** o‘xshar,
Oyog‘ing kimki o‘psa, mangu yashar.
(Xorazmiy)

Ko‘ngullar Ka’basin bir-bir ziyyarat ayladim, emdi
Tavofi Makka-yu taxti Sulaymon etmasam bo‘lmas.

(Nodira)

***darmon-davo, shifo**; ***Sulaymon-barcha hayvon-u qushlar, ins-u jinlar hukmdori**; ***Masih-jon bax eta olish qobiliyatiga ega payg‘ambar**; ***Yusuf-Ya’qub alayhissalomning eng chiroyli o‘g‘li**;

***Xizr-Islom rivoyatlaridagi shaxs, taqvodor inson. Allohning quli demakdir.**

Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u malohat bor
Fasohatda*, **sabohatda***, hama to‘g‘rida san nozik.

(Furqat)

Tanosub-she’r misralarida bir-biriga yaqin va bog‘liq tushunchalarni qo‘llash orqali hosil qilinadi. Masalan yuz haqida gap ketganda bevositda ko‘z, qosh, lab, og‘iz kabilar hayolimizda

jonlanadi, yoki bulut deyilganda yomg‘ir, chaqmoq miyyamizda birdan o‘z aksini topadi, aynan shu holat g‘azallarda qo‘llanilishi tanosub san’atini yuzaga chiqaradi.

Chaqilg‘och barqi ishqijovidoniy*,

Yetishgach bir sharar* kul ayladi.

Ushbu misralarda chaqmoq, uchuqun va kul so‘zlari uyishgan holda tanosibni hosil qilmoqda.

Zulfing cheriki* jamol mulkin

Oldi ko‘zing ittifoqi birla.

(Atoiy)

Uzun sochingdin uzmasmen ko‘ngulni,

Ayoqing qanda bo‘lsa boshim anda.

(Atoiy)

Mubolag‘a arab tilida “kattalashtirish”, “kuchaytirish” ma’nolarini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalash san’ati demakdir. Masalan:

Ko‘zumdin yoshunib ey bahri altof,

Ko‘zumning yoshini daryo qilibsen.

(Bobur)

Ul pari hajrinda men devona cheksam o‘tlug‘ oh,

Ey malak, gar bo‘lmasang vofiq, qanoting churkanur.

(Navoiy)

Mehringdin, ayo, oy-u falakka yetar ohim,

Qilmas, netayin, ko‘nglunga bir zarra siroyat

(Lutfiy)

***fasohat-go‘zallikda; *sabohat-ko‘rkamlik, malohat; *jovidon-abadiy, uzoq umr; *sharar-uchqun; *cherik-askarlar, qo‘shin.**

Mubolag‘aning uch turi mavjud bo‘lib ular bir-biridan farq qiladi:

Tablig-aqlan ishonish mumkin bo‘lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lgan narsa hodisa.

Irg‘oq-belgi yoki harakatga aqalan ishonish mumkin bo‘lsa ham, hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan tarzda kuchaytirib tasvirlash.

G‘uluvv-aqlga ham sig‘maydigan, real hayotda esa umuman sodir bo‘lmaydigan voqealarni bo‘rttirib tasvirlash san’atidir.

She’riy san’atlar adabiyotning eng boy va murakkab janrlaridan biri bo‘lib, inson ruhiyatining chuqur qatlamlariga kirish imkonini beradi. Ular nafaqat estetik qadr-qimmatga ega, balki milliy va umumbashariy madaniyatning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. She’riy asarlar tilining go‘zalligi, obrazlarning boyligi va ramziy ma’nolari orqali o‘quvchini chuqur fikirlashga undash, uni ilhomlashtirish va dunyoqarashini kengaytirish imkonini beradi. She’riyatda ifodalangan g‘oya va his-tuyg‘ular insonning ichki olamiga ta’sir qilib, ko‘plab madaniyatlar va davrlar orqali odamlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va ulug‘lanish jarayonlarini mustahkamlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hojiahmedov A. “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya” -Toshkent. 1998. 4-bet
2. V.Rahmonov. “She’riy san’atlar” 1962. 180-bet
3. A.Husayniy. “Badoyi us-sanoyi” 1981. 29-bet
4. H.Umurov .“Adabiyotshunoslik nazariyasi” 171-bet.
5. 10-sinf adabiyot darsligi.167-bet
6. Yusupova D. ”O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” (A.Navoiy davri)-Toshkent. 2013. 60-bet
7. Qayumov A. “Mumtoz so‘z” -Toshkent.2009. 147-bet
8. www.arxiv.uz
9. A.Navoiy “Hayrat ul-Abror” (I qism) 130-bet.